

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

Muhabbat SOLIXOVA

AN’ANAVIY XONANDALIK ANSAMBLI

(Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma)

Toshkent
2010

O'quv qo'llanma O'zbekiston davlat konservatoriyasining Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir: **Begmatov S.M.**, sa'natshunoslik fanlari nomzodi, professor.

Taqrizchilar: **Xudoynazarov M.**, O'zbekiston davlat konservatoriyasi «An'anaviy ijrochilik» kafedrası professori.

Do'stmurodov B., V.Uspenskiy nomidagi Respublika akademik litseyi «An'anaviy ijrochilik» kafedrası mudiri, O'zbekiston xalq hofizi.

O'quv qo'llanma musiqa yo'nalishlarida, an'anaviy xonandalik ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun xonandalik ansambli fani bo'yicha tavsiya etiladi. Unda an'anaviy xonandalik, jo'rovozlik va ansambl bo'lib ijro etish xususida kasbiy tavsiyalar va ijro amaliyoti uchun bir qator musiqiy namunalar keltirilgan.

KIRISH

An'anaviy xonandalik o'zbek mumtoz musiqa merosining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ijrochilik amaliyotida uning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, yakka, jo'r va ansambl ijrolarini o'z ichiga oladi. Ijroviy xususiyat va mahoratlar nuqtai nazaridan ularning negizi bir bo'lsada, talqin mezonini xususida har biri o'ziga xos tomonlarga egadir.

An'anaviy xonandalik ansambli musiqiy ta'limda yosh xonandalarning ijroviy imkoniyatlarini oshirish, uslublarni o'zlashtirish, sherigi bo'lgan hamnafasini tinglash va unga mos harakat qilish, jamoa bo'lib ijro etish ko'nikmalarini hosil qilish kabi xonanda uchun zarur bo'lgan kasbiy mahoratlarni egallashga qaratilgan. An'anaviy xonanda yoshligidan birgalikda kuylashga harakat qilishi lozim. Chunki, bu sohada nom chiqargan katta-katta xonanda va hofizlarning aksariyati jo'rovozlik va ansambl tarkibida ham xonish qilganlar. Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Orif Alimaxsumov, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Shokirjon Ergashev, Hadya Yusupova, Mahmudjon Yo'ldoshev, Matluba Dadaboeva, Mahmud Tojiboev, Beknazar Do'stmurodov, Komila Bo'rieva, Abdunabi Ibragimov, Soyib Niyozov kabilar shular jumlasidandir.

Talabalarni an'anaviy xonandalar ansambli ijrosiga xos ta'limotiga e'tibor berish, avvalo kelajak uchun arziguli va mohir xonandalarning barkamol avlodini tarbiyalash desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun musiqiy bilim beradigan o'quv dargohlarida, musiqiy kollejlarda va akademik litseylarda ansambl (xonandalik) sinfi uchun maxsus dasturlar yaratilgan. Mazkur o'quv qo'llanma ham ana shu dasturda belgilangan asosiy vazifa «professional ansambl xonandasini tayyorlash» bo'yicha kerakli kasb ko'nikmalarini va amaliy darslar uchun mashg'ulotlarda zarur bo'lgan asarlarni o'quvchilarga tavsiya etishdan iborat.

O'zbek xalq mumtoz musiqasi o'zining uslubiy va janr jihatidan boyligi bilan alohida ajralib turadi. Uni o'rganish, barcha uslublarni amaliy o'zlashtirish yuqori malakali xonandalar ansambllari ijrochilarini tayyorlashda katta ahamiyatga egadir. Bunda eng muhimi, xonandalar ijro paytida asarlarni g'oyaviy mazmuni, ularni uslub shakllarini birgalikda anglashlari va ijro etishlaridir. Shu bilan birga, texnik va badiiy bezaklar ijrosini hammada bir xilligiga erishish, asarlarni puxta ishlash, ketma-ketlik va hamnafaslikni me'yorida amalga oshirishdan iboratdir.

Shu bois mazkur o'quv qo'llanmada o'quvchilar uchun an'anaviy xonandalik kasb ko'nikmalarini shakllantirishda zarur bo'lgan uslubiy va nazariy tomonlarini imkon darajada yoritishga harakat qilindi. Ansambl haqida tushuncha, uslub va ko'nikmalarni rivojlantirish omillari, an'anaviy xonandalik ansambli ijrosida ovoz mutanosibligini ta'minlash, badiiy did va uslubiy idrok, usul asoslari va ritmik tarbiya hamda dasturda belgilab berilgan musiqiy namunalardan misollar qo'llanmaning tarkibiy qismi sifatida olindi. Ta'lim

jarayonida undan munosib foydalanilsa biz ko‘zlagan maqsadimizga erishgan bo‘lamiz. Bizning Yu.Rajabiy, I.Rajabov, L.Dmitriev, O.Matyoqubov, S.Begmatov, O‘.Rasulov, G.Muxamedova, N.Qodirov kabi ustozlar yaratgan kitoblarga asoslanishimizning boisi ham shunda. Chunki, bu masalaning turli jihatlari avvalambor ana shu manbalarda yoritilgan. Misollar esa mumtoz musiqamiz merosi, Shashmaqom namunalaridan olingan.

AN'ANAVIY ANSAMBL

Umuminsoniy rivojlanish

Xonandalarning ansambl bo'lib ijro etishlari bir qator musiqiy, badiiy, fiziologik va ijroviy xususiyatlarni uyg'unligi negizida yuzaga keladi. Avvalambor ansambl tarkibidagi har bir xonanda-ishtirokchi alohida holda xonandalik ijroviy jihatlaridan xabardor bo'lib, ma'lum malakaga ega bo'lishlari talab etiladi. Bu malakalar quyidagi xonandalik kasbiy omillaridan iboratdir:

1. Musiqiy savod (ya'ni, saboq, bilim, ijro, tinglash, sezish, madaniyat, badiha va b.);
2. Ovoz talqin etish uslubi, ya'ni kuylash;
3. Tinglash va unga mos talqin etish xislati;
4. Ijroviy malaka va musiqiy meros;
5. Jo'rovoqlik san'ati;
6. Ansambl bo'lib ijro etish ko'nikmalari.

Musiqiy savod. Ma'lumki, xonandalik azal-azaldan xalq og'zaki an'analari asosida shakllanib, omma tomonidan o'zlashtirilib, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan ijro uslubining mukammal ko'rinishlaridan biridir. Xonandalik zamirida ovoz, iste'dod, xotira, talaffuz, badiha va yakuniy bosqich talqin (ijro) bilan bog'liq unsurlar mavjuddir. Ularning har biri o'z o'rnida mavjudligi va qobiliyatligi bilan sug'orilgan bo'lishi nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etish lozimdir. Chunki, xonandalikning shakllanishi va rivojida bu jihatlarining har biri o'z vazifasiga egadir. Ijro jarayonining mutanosibligi va kasbiy jihatdan mukammalligi hamda ijro amaliyotidagi mohirlik aynan ushbu unsurlarning mavjudligi va rasoligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga eng ahamiyatli tomoni – musiqiy savod puxta va to'liq holda o'zlashtirilishini ta'minlab beradi.

Musiqiy savod xonandalikda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilish uchun zarurdir. Eng avvalo xonandalik – talqin ovozigaga ega bo'lishdir va bu ovoz o'zining sifati, jarangi, diapazoni va imkon darajasida jozibasiga ega bo'lishi muhimdir. Xonandalik amaliyotini nazariy bilim bilan tarbiyalashda bu jihatlarining mavjudligi katta ahamiyat kasb etadi. Qayd etish joizki musiqa talqini, ya'ni xonandalikni shakllanishi jarayonidagi ilk saboqda tinglash madaniyatini yaxshi yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

«Talabani musiqiy ongini milliy ohanglar bilan to'ldirish uchun – deb yozadi O'.Rasulov o'zining kitobida, – ustozlar ta'biri bilan aytganda, uning qulog'ini pishirish uchun mashqlarning barcha butun va yarim pardalarda bajarilishi talab etiladi»¹. Demak ijroning mukammal tarzda shakllanishi uchun tinglash madaniyatini hosil qilish va shunga mos ko'nikmaga ega bo'lish lozimdir.

¹ Расулов Ў. Анъанавий хонандалик ўқитиш методикаси. –Т., 2006. 37-б.

An'anaviy xonandalikdagi saboq jarayonining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, mumtoz musiqa ijrochiligida maktab yaratgan xonandalarning ijro uslublarini tinglash va idrok etishni bilishdir. Shakllanayotgan xonanda ijro amaliyotida mashhur bo'lgan ijro uslublaridan qanchalik ko'p xabardor bo'lsa, ularning ijroviy xususiyat va sifatlarini idroklasa, xonandalik amaliyotini o'zlashtirishi shunchalik oson hamda savodli bo'lishi muqarrardir.

Ovoz talqin etish uslubi, ya'ni kuylash mezonida shakllanayotgan xonanda, nazariy amallar asosida tushunib va bilib kuylashi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, xonandaning kuylashida, umummusiqiy badiiy va fiziologik qoidalarga asoslanishi ko'zda tutiladi. Eng avvalo xonandaning ovoz talqin etishida – «ikki muammoni hal qilish talab qilinadi: ijro etish apparatini qurish, ya'ni xonandaning professional ovozi hosil qilish va kuylash malakasini shakllantirish lozim. Ikki masala bir vaqtda bir-biriga bog'liq holda amalga oshirilishi kerak. Har qanday, hattoki eng sodda ko'nikmani ham elementar ijro vazifasi bilan bog'lash zarur».² Shundan so'ng xonandada kuylash omili to'g'ri va kasbiy jihatdan mukammal kamol topishi mumkin.

Xonandaning ovoz talqin etish jarayonida asosiy e'tibor vokal (ovoz chiqarish) texnik ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilishi lozim. So'ngra xonandaning ijrochilik mahoratiga e'tibor beriladi. Bunda, albatta, ustozlar xonandaning imkoniyat darajasiga asoslanishlari muhim. Bular – xonandaning ovoz kuchi, chidamliligi, diapazoni, xotirasi, qabul qilishi va ruhiy holatlaridir. Xonanda kuylashdan oldin uni ichki hissiyoti orqali tasavvur qilishi, aytiladigan ohang va so'zni tushunib idroklagan bo'lishi yaxshi natijaga olib keladi. Bunda xonanda ruhan va ma'nan sozlanadi, kuylash mezoni mukammal, nuqsonsiz amalga oshiriladi.

Tinglash va unga mos talqin etish omili xonandalik sohasining ibratli va turli badihaviy jihatlarini shakllantiruvchi mezondir. Bunda xonandaning intellektual darajasi, hissiy-irodaviy kuchi, ehtirosli jihatlari asosiy omillar sifatida gavdalanadi. Ushbu jihatlarni mujassam etib ovoz talqin etishda esa, ovoz apparatining roli o'zini namoyon etadi. Ovoz apparatining faoliyati xonandaning sezgi qobiliyatiga asoslanadi. Sezgilarning rivojlanganlik darajasi o'z-o'zidan ovoz apparatining harakat mukammalligini ta'minlab beradi. Sezgining eng muhim turi, bu yuqorida bayon etganimiz eshitish-tinglashdir. Chunonchi, xonanda eshitish orqali o'zi talqin etayotgan tovushning balandligini, tasavvur qilishni o'rganadi, tovushlarni tembral ranglarini his etadi va aniqlagan holda kuylaydi. Xonandada eshitish qobiliyati rivojlansa yakka, jo'rovoz va ansamblli xonishlarda barcha ovozlarga uyg'un holdagi ovoz talqiniga erishiladi.

Ijroviy malaka va musiqiy meros bir maqsadni amalga oshirishda birdek ahamiyatga ega bo'lgan ikki amaliy mashg'ulotdir. Xonandaning ijroviy malakasi avvalo nazariy va uslubiy mashqlarga tayansa, uning amaliy jarayonida

² Мухамедова Г. Хонандалик услуги асослари. –Т., 2007. 4-б.

musiqiy merosni o'zlashtirish evaziga bosqichma-bosqich kamol topib boradi. Xonandalikni mumtoz darajada egallash xalq musiqa merosi, xalq mumtoz musiqa merosi va umumbashariyat xonandalik an'alarini qay darajada o'zlashtirish darajasi bilan xarakterlanadi.

Xonandaning musiqiy merosni to'laonli anglashi va ijroviy malakasi mumtoz musiqiy namunalarni (ayniqsa maqomlarni) g'oyaviy-badiiy mazmuni, mahalliy va shaxsiy uslublarni hamda tarkibiy shakllarini uyg'unlikda talqin etishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ijro texnikasi va ularni milliy-badiiy bezaklar bilan me'yorida talqin etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xonandalik amaliyoti ijrochining texnikasi, idroki, bilim va talqin etish, badiha va xotira kabi kasbiy unsurlarini doimo rivojlantirib boradi. Ayniqsa, **jo'rovozklik amalida** bu xususiyatlar yanada keskin tus olib ijro mahoratini o'sishiga hamda tafakkurining rivojiga ta'sir etadi. Jo'rovozklik san'ati xonandadan nafaqat shaxsiy ijroviy unsurlar, balki hamnafasining barcha xususiyatlarini o'zlashtirishi va mutanosib holda talqin etishga o'rgatadi. Bunda eng asosiy mezonlar hamnafaslarning ruhiy holati, nafas mezonlari, asarni bilish darajasi, ijro uslubini o'rganilishi, milliy qochirim va bezaklarni, shu bilan birga asar dinamik tuzilmalarini tushunish-idroklash mezonlarining mutanosibligini saqlash bilan xarakterlanadi.

Shu bois xonandalikdagi kuylash mezonlari har bir ovoz sohibidan yuqorida keltirilgan umummusiqiy jihatlariga ega bo'lish, bilish va rivojlantirishni talab etadi. Xonandalik kasbiga bunday munosabatlarning pirovardida sog'lom, tarbiyali, toza, bilimdon va mohir kasb egasi bo'lish muqarrar.

I. Mustaqil mashg'ulotlar.

1. Musiqa nazariyasini mavzular tizimida o'zlashtirib borish.
2. O'zlashtirayotgan musiqiy namunani solfedjio usulida baland va past ovoz bilan mashq qilish.
3. Xalq musiqa namunalaridan, shaxsiy ijro uslublarda ijro etilgan ashulalarni tinglash.
4. Tinglayotgan ashulaga ichki sezgi organlari, ichki tinglash orqali jo'r bo'lish va idrok etish.
5. Tinglash jarayonida xonandaning nafas olish va uni sarf qilish uslubini bilib, o'rganish va uzun nafas bilan ijro etishga e'tibor qaratish.
6. Musiqiy merosni muntazam o'zlashtirib borish.

II. O'qish uchun adabiyotlar.

1. Ражабов И. Мақомлар. –Т., 2006.
2. Дмитриев А.Б. Основы вокальной методики. –М., 1963.
3. Мухамедова Г. Хонандалик услубияти асослари. –Т., 2007.
4. Бегматов С. Ҳофизлик санъати. –Т., 2009.
5. Расулов Ў. Анъанавий хонандалик ўқитиш методикаси. –Т., 2006.

USLUB VA KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

O'zbek xalq musiqa merosining boy va bir qator o'ziga xos xarakterga ega bo'lgan vohalar hamda ularning mahalliy qadriyatlari bilan sug'orilgan an'analari mavjud. Har bir vohada o'zining shevasi, urf-odatlarini negizida ijro an'analari va ijroviy uslublari shakllangan. Ularning barchasi o'zbek musiqiy an'analari negizida mushtarak bo'lsa, ijroviy jihatlaridan lokal xususiyat kasb etadilar. Uslub, ana shu lokal (sheva) xususiyatlari bilan xarakterlanuvchi muayyan ijro desak to'g'ri bo'ladi.

Ijrochilik amaliyotida ijroviy uslublarning turlichadir. Jumladan: **vohaviy, mahalliy, shakliy va shaxsiy**. Uslub an'anasi musiqiy merosning barcha jabhalarida shakllangan va avlodlardan-avlodlarga o'tib rivojlantirib kelinadi. Bu jarayon, ayniqsa xonandalik san'atida yaqqol ifodasini topganligini qayd etish lozimdir.

Xonandalikda uslublarning rang-barangligi musiqiy merosning ham keng qamrovli ekanligini namoyon etadi. Vohaviy uslublarning bizda to'rttadir: Xorazm, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona vodiysi. Lekin ularning ichki jihatlarida bir qator o'ziga xoslik tomonlari uchraydi. Xususan, Farg'ona vodiysining o'zida mahalliy uslublarning bir nechta ko'rinishlari yuzaga kelganligini qayd etish mumkin. Masalan, Qo'qon ijro uslubi, Marg'ilon ijro uslubi, Andijon ijro uslubi va h.k.

Shaklli-janrli ijro uslublari tarkibiga maqom, maqom yo'llariga mansub katta ashula, suvora, mavrigi va yallalarni kiritish mumkin. Bunday uslublarning ham tarkibiy jihatlar nuqtai nazaridan o'ziga xos ichki tarmoqlariga ega. Xorazm maqomlari, Shashmaqom, Farg'ona-Toshkent maqomlari kabilar shular jumlasidandir.

Yakka, jo'rovozli, jamoaviy (ansambl) uslublari bevosita talqin bilan bog'liqdir. Yakka ijro xonandalik amaliyotida shaxsiy va akademik an'anaviy uslublarni o'z tarkibiga oladi. O'zbek mumtoz musiqa ijrochiligida shaxsiy uslublarning o'zining rang-barangligi, turlichligi va ko'p sonliligi bilan ajralib turadi. Ularning negizi vohaviy, janrli va mahalliy unsurlar bilan sug'orilganligi bilan ham alohida ahamiyatlidir.

Mumtoz musiqa ijrochiligi amaliyotida shaxsiy uslub yaratib nom qozongan hofizlardan Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Hamroqul Qori, Erka Qori, Mamatbuva Sattorov, Sodirxon Hofiz Boboxonov, Jo'raxon Sultonov, Rasulqori Mamadaliev, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Hojixon Boltaev, Madrahim Sheroziy, Komiljon Otaniyozov, Muhammadjon Karimov, Orifxon Hotamov kabi bir qator mashhur hofizlarni keltirish joizdir.

Ijrochilik amaliyotida shakllanib, maktab darajasida avlodlar tomonidan qabul qilinib, davom ettirilayotgan har bir uslub o'zining muayyan ijroviy an'analari bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga yangi avlodning shakllanishi uchun ibratli saboq manbai sifatida xizmat qilishi begumon. Qolaversa, har bir

shaxsiy uslubda o'zbek xonandalik an'alarining o'ziga xos eng go'zal jihatlari alohida bir tarzda shakllanganligini e'tirof etish lozim.

Yangi avlod tarbiyasida xonandalik uslublari zamin sifatida xizmat qilishi lozimdir. Mumtoz xonandalikni kasb etuvchi yosh avlod o'zining ruhiyati va ishtiyoqi asosida bir ijro uslubga mehr qo'yib ilk xonandalik ko'nikmalarini o'zlashtirishi muqarrardir. Bu esa o'z o'rnida mumtoz xonandalikni o'zlashtirish uchun asosdir. U ijro maktablari va maqom ijrochiligini o'zlashtirish bilan davom ettiriladi, rivojlantiriladi.

Ijro ko'nikmalari negizida xonandalarning ovoz ishlatish uslublari, texnikasi, ohang bezaklarini qo'llash usullari, cholg'u bilan uzluksiz ijroni ta'minlash, so'z talaffuzining aniqliklari bilan bog'liq kasbiy unsurlar o'rin olgan. Xonandalar bu uslublarni o'z ijroviy imkoniyatlari doirasida o'zlashtirib, avvalo mumtoz xonandalik kasbini egallaydilar. Shashmaqomga murojaat etishlari esa, bu ijroviy ko'nikmalarni mustahkamlashga imkon yaratadi. Har bir vohta va shaxsiy uslublarning zarracha rangi ham xonanda ijrosiga ma'no va zeb berishi mumkin.

Maqomlarning ijrosi xonandalarda katta ovoz, imkoniyat va mahorat bo'lishini talab etadi. Shu bois o'tmishdagi ustoz xonandalar mukammal ijroni ko'rsatishda jo'rovoz bo'lib, jamoa (ansambl) bo'lib xonish qilganlar. Buning zaminida xonandaning toliqishi inobatga olingan va asarni to'laqonli ijrosi ko'zlangan bo'lsa ajab emas. Musiqiy merosimiz to'plangan oltin fond yozuvlarida ham aksariyat maqomlar xonanda va sozandalar ansambli ijrosida muhrlanganligining ham asosiy sababi shunda bo'lishi mumkin. Ansambl ijrosi asar uchun ham, ijrochi xonandalar uchun ham, musiqiy ohanglarning uyg'unlik jozibasini namoyish etishda katta imkoniyatlar yaratib beradi. Kelajak avlodni bunday ijroga, jamoa bo'lib kuylashga jalb etish, o'rgatish xonandalarning har tomonlama tarbiyasi, idroki va ijrosi uchun ibratdir.

I. Mustaqil mashg'ulotlar.

1. O'zbek xalq musiqa ijrochiligida mavjud xonandalik uslublari xususidagi adabiyotlar bilan tanishish.
2. An'anaviy xonandalikda shakllangan ijro uslublari tinglash va ajratib-idroklashga harakat qilish.
3. Yu.Rajabiy, J.Sultonov, M.Uzoqov, O.Xotamov kabi shaxsiy ijro uslublari tinglash va o'zlashtirish.
4. Maqom ijrochilik uslubini muntazam tinglab borish va shaxsiy uslublari bilan solishtirish.
5. Ijroda uslublardan foydalanishga harakat qilish.
6. O'z ijrosini shaxsiy va maqom ijro uslublari kabi xarakterli yo'llar bilan tarbiyalashga ko'nikish.

II. O'qish uchun adabiyotlar.

1. Ражабий Ю. Музыка меросимизга бир назар. –Т., 1980.

2. Бегматов С. Хонандалик санъати. –Т., 2008.
3. Бўриева К. Анъанавий хонандалик (аёллар овозлари учун). –Т., 2009.
4. Isroilova H. An'anaviy xonandalik san'ati. –Т., 2007.
5. Бегматов С. Орифхон Хотамов. –Т., 2000.
6. Қосимов Р. Анъанавий ижрочилик. –Т., 2007.

AN'ANAVIY XONANDALIK ANSAMBLI IJROSIDA OVOZ TALQINI MUTANOSIBLIGI

Maqom ijrochiligida jo'rovozlik hamda ansambl bo'lib kuylash an'anasi mavjud. Eng avvalo, ansambl ijrosi musiqiy merosni, uning namunalarini zabardast va monumental asarlar ekanligini to'liq namoyon etadigan ijro turidir. Uning zamirida hamfikrlik, hamnafaslik, jamoa, qo'llab quvvatlash, maqsad sari intilish, birgalikda baham ko'rish kabi umuminsoniy jihatlar yotadi. Shu bois, ijrochilik amaliyoti davomida, ya'ni xonandalikda ansambl bo'lib ijro etishning kasbiy mezonlari shakllanganki, ularni o'zlashtirish har bir ansambl ishtirokchilari uchun xonandalikning turli jihatlarini anglash bilan barobardir.

Demak, ansambl ijrosida xonandalarning ovoz talqin etishlaridagi ko'nikmalari shakllanadi.

«*«Ansambl»* – fransuz tilida «birgalikda» degan ma'noni anglatadi. Ijrochilar soniga qarab bu ansamblar turlicha ataladi. Agar ikki ijrochi bo'lsa – *duet*, uch ijrochi – *trio*, to'rt ijrochi – *kravtet*, besh ijrochi – *kvintet* va h.k. Ansambl atamasi yaxshi tuzilgan va yuksak ijrosi bilan ajralib turadigan badiiy kollektivlarga nisbatan ham qo'llaniladi».³ I.Akbarovning ansamblga bergan tushunchalari nafaqat cholg'u ijrochiligiga, balki xonandalik amaliyotiga ham xosdir. Duet, trio, kvartet, kvintet kabi tushunchalar jo'rovozlikda qo'llaniladigan va xonandalar soniga qarab belgilanadigan ansamblar ekanligini e'tirof etish joizdir. Faqat, ular ovozlar hisobiga (ko'povozlik nuqtai nazaridan) farqlanishlari mumkin.

An'anaviy xonandalik ansambli o'zining barcha xususiyatlari negizida o'ziga xos xonandalar jamoasini tashkil etadi. Xonandalar ansamblining ishtirokchilari soni ham ikkitadan boshlanib, o'ndan ortiq ham bo'lishi mumkin. Ansamblning tarkibi imkoniyat va maqsad bilan bog'liq jarayondir.

An'anaviy xonanda bo'lib shakllanayotgan har bir ijrochini xonandalik ansambli tarkibida kuylashi uchun sohani o'zlashtirishi, bilishi va uning qoidalariga qat'iy tarzda rioya qilishi lozim bo'lgan jihatlari mavjud. Jumladan: *hamnafasini tinglab ijro etish, nafasini me'yorida sarf qilish, asarni bilish, ansamblga mutanosib holda so'z matnlarini bir xil talqin etish, badiiy*

³ Акбаров И. Музыка луғати. –Т., 1987. 17-18-б.

bezaklarni bir xilligiga e'tibor berish, asarnig o'ziga xos joylarini puxta ishlash, ovoz almashish, to'ldirish, cho'zish va bir xilda yakunlash va h.k.

Ansamblli ijroda uning ishtirokchisi muayyan bir butunni tashkil etuvchi musiqiy cholg'uning bir bo'lagiga aylanishi lozim. Shu cholg'u (jamoaviy cholg'u) nima his etsa birgalikda, bir-biriga mutanosib holda tarannum etishga harakat qilish lozim. Shu bois, an'anaviy xonandalik ansambli ishtirokchisidan hamnafaslarni tinglab, his etib, sezib ijro etishlari talab etiladi.

«Ashulachilik – deb yozadi G.Muxamedova – murakkab ruhiy-fiziologik jarayondir. Unda intellektual, emotsional, hissiy-irodaviy jarayonlar bir-biriga uzviy bog'lanadi»⁴. Yakka xonandaning xonish jarayonida ruhiy, fiziologik, intellektual, hissiy, ehtirosli, irodaviy, ifodaviy, obrazli jarayonlar mutanosib holda uyg'unlashadigan bo'lsa, ansamblli ijroda har bir xonandaning bunday jihatlari qolganlari bilan mos kelishi lozim bo'ladi. Albatta, bu juda murakkab jarayon. Lekin, uni ansamblli ijroga moslashtirish va uyg'unlikdagi go'zal ijroga erishish mumkin. Chunki, har bir shakllanayotgan an'anaviy uslubdagi xonandalarda yuqorida keltirilgan shaxsiy jihatlar bo'lishi muqarrar. Faqat ularni kerak darajada ishga solish, qoidaga binoan boshqarish va mutanosiblik ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Buning uchun eng avval, xonandaning sezgi bilan bog'liq barcha xususiyatlarini rivojlantirib undan me'yorida foydalanish lozim.

Sezgi xonanda uchun eng kerakli va muhim xususiyatdir. Xonandalar uchun sezgining eng muhim turlaridan biri eshitish-tinglash hisoblanadi. Musiqiy nuqtai nazardan bunga qaralsa, eshitishning ikki xili mavjudligini ko'rish mumkin. Ya'ni, passiv eshitish va aktiv eshitish. Ansambl tarkibidagi an'anaviy xonandalarda, eng avvalo eshitishning har ikki turi mavjud bo'lishi lozim. Chunki passiv eshitishda xonanda eshita oladi va buni to'g'ri qabul qiladi. Aktiv eshitishda ansambl uchun eng zarur bo'lgan xususiyatlardan biri, eshitganini ovoz talqini orqali to'g'ri va aniq qaytara olish xususiyatiga ega bo'ladi.

Vokal-ashulachilik san'atini namoyandalari bunga juda katta e'tibor beradilar. Xususan G.Muxamedova yozadi: – «Ashulachilikda «vokal eshitish» tushunchasi mavjud. Bu degani ovoz yangrashini nafaqat eshita bilish, balki ovoz apparatida sodir bo'layotganlarini his qilib, ularni tasavvur qilish va amalga oshirish. Vokal ko'nikmalari rivojlangan sari xonanda vokal eshitish qobiliyati ham asta-sekin rivojlana boshlaydi».⁵ Demak, ansamblli xonishlarda, xonandalarning vokal eshitish qobiliyatiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

An'anaviy xonandaning ansambl ijrosida, hamnafaslarning ijro paytida sodir bo'layotgan barcha jarayonlarni his etib, tasavvur qilish, shu holatga mos ijro etishi juda muhimdir. Chunki, musiqiy merosimiz ijrochiligi an'analaridan turli-tuman bezak va jilolar o'rin olgan. Har bir xonanda ularni chiroyli ijro etib

⁴ Мухамедова Г. Хонандалик услубиёти асослари. –Т., 2007. 12-б.

⁵ Shu manba, 13-b.

ko'rsatishga harakat qiladi. Ansamblda esa bu jarayonni, bir g'oya va yo'lga asoslanib talqin etish talab etiladi.

Asarni bilish mezoni ham ijroda katta ahamiyatga ega. Bilish zaminida, avvalo ijro etiladigan asarning so'z matni, musiqiy ohang matni, asar tarixi va hattoki amaliyotda mukammal ijro etilgan uslublari va ijrochilari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish yotadi. Asarning musiqiy matni har tomonlama puxta o'rganilishi talab etiladi. Asarning daromad qismlari va rivojlanuvchi tarkibiy qismlarining har biri dinamik rivoj asosida kuylanishi ham muhimdir.

Ijroning muvaffaqiyati so'z matnini yodlash bilan emas, balki g'azalning vazn xususiyati, ohang metro-ritmik jihati bilan mutanosib talqin etilishi bilan ham bog'liqdir.

Ansambl ijrosida xonandalarning bu ikki jihatni yaxshi o'zlashtirishlari ijro jarayonining mukammal shakllanishiga asos bo'ladi. Zero, asarning ohang va so'z matnlarini yod olgan xonandalar ijroviy uslublarni o'zlashtiradilar. Asarning murakkabligi asosida va ansambl tarkibidagi ovozlarning mavjudligiga qarab birgalikda va alohida yoki jo'rovoqlik qabilida kuylashni o'zlashtirish lozim bo'ladi. Ansamblli ijroda ovozlarni to'g'ri, sheriklar bilan bir nafasda talqin etish muhim omillardan hisoblanadi.

I. Mustaqil mashg'ulotlar.

1. Xonandalik amaliyotida qo'llaniladigan duet, trio, kvartet va h.k. xonandalik ansambllarini tinglash.
2. Hamnafaslikda ijro etilgan katta ashulalar, suvoralar aytishuvlari, xalq aytishuvlarini tinglab, idroklab o'rganib borish.
3. Vokal ansambllarining xilma-xil turlari ijrosini o'zlashtirish.
4. Jo'rnavozlik, ovoz va soz jo'rnavozligi va jo'rovoqlik ijrolarini tinglab, ajratish va ularning umumiy prinsiplarini anglash. Ijroda uslublarni uyg'unlashtirishga harakat qilish.

II. O'qish uchun adabiyotlar.

1. Акбаров И. Муסיқа луғати. –Т., 1987.
2. Мухамедова Г. Хонандалик услубияти асослари. –Т., 2007.
3. Муллақандов Д. О некоторых особенностях и видах узбекского национального пения // Народные музыканты Узбекистана, –Т., 1959. –С. 19-23.
4. Мамадалиев Ф. Овоз хусусиятлари. –Т., 2000.

BADIIY DID VA USLUBIY IDROK

Badiiy did – hayotda voqelik bilan bog‘liq barcha narsalarni, ijodiy mahsulotlarni eng go‘zal va nafis san’atlar vositasi orqali his etish va in’om etishdir. Bu omil ikki jarayon bilan bog‘liq. Ya’ni, ijodkor va mahsulotni qabul qiluvchi, tinglovchi.

Odatda, badiiylashtirish ijodiyotning eng muhim xususiyatlaridan biridir. «**Badiiy** – voqelikni nafis san’at vositalari, obrazlar orqali ifoda etuvchi, tasvirlovchi»⁶. **Did** esa – «Go‘zallikni, nafosatni his etish, undan estetik zavq olish estetikasi»⁷. Demak, musiqada voqelikni, hayotni, tabiatni musiqiy ohanglarda go‘zal va nafosat bilan ifoda etishdir. Bu omillarning negizi, yuksak did bilan, estetik zavq oladigan darajada idroklashdan iborat, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Har bir xonandadan eng avvalo iste’dodi, eslash, xotira, bilim, ovoz va talqin etish qobiliyatiga ega bo‘lish talab etilsa, ikkinchi jarayonda, unda badiiy did, ya’ni asarni eng go‘zal va nafosatli ifoda etish uchun imkoniyatlari, badiiy ifodalovchi xususiyatlari bo‘lishi muhim hisoblanadi. Zero, xonandalar yuksak estetik talablarga javob beradigan ijroviy xususiyatlarni o‘z ijro va talqinlarida shakllantirishlari muhimdir.

Musiqiy namunalarning mukammal darajada, o‘ta ifodaviy talqini, xonandaning barcha ijroviy jihatlar qatorida badiiy mahorati va badiiy didiga ham bog‘liqdir. Xalqimizda «did bilan ishlangan» degan iboraning zaminida ana shunday mahorat va xislatlar mujassam topganligiga guvoh bo‘lamiz. «Bunday did – deb yozadi S.Begmatov va N.Qodirovlar o‘zlarining «Ansambl sinfi» kitobida, – ko‘p jihatli tushunchadir. Uning tarkibiga ish faoliyatining ilk mashg‘ulotlaridan boshlab, sahna chiqishlarigacha bo‘lgan ijodiy jarayon kiradi. Zero, badiiy did san’atkor madaniyatida o‘z faoliyatining asosi hisoblanadi. Uni kasbga, zamonga, yoshga nisbatan shakllantirish, tarbiyalash hamda rivojlantirish lozim»⁸.

Darhaqiqat, badiiy did xonandalarning, ya’ni ansambl ijrochilarining kasbiy mahoratni egallashlari jarayonlarida shakllanib, rivojlanadi. Va, eng muhimi, san’at asarlarini tinglovchilarga taqdim etishda ahamiyatli omillar qatoridan joy oladi. Bu omillar o‘z-o‘zidan xonandalar uchun ahamiyatli bo‘lgan yana bir jihatni, ya’ni munosabatni shakllantirishga undaydi. Ansambl xonandasi har bir ijro etadigan asarining tarixi, qaysi davrga mansubligi, ijodkor-bastakori, janri, matnlariga e’tiboran yondashishi va boshqa kasbiy jihatlarini o‘zlashtirishi lozim. Bu, eng avvalo, xonandaning o‘zi kuylaydigan asarga nisbatan munosabati bo‘lsa, ikkinchidan, asarni tinglovchilariga havola etish mezonida bevosita ijroviy muloqot munosabatini belgilab olishiga zamin bo‘ladigan

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Том 1. –Т., 1981. 71-б.

⁷ Shu manba, 233-b.

⁸ Begmatov S., Qodirov N. Ansambl sinfi. –Т., «Yangi nashr», 2008. 6-b.

muhim tomonlar hisoblanadi. Shuning uchun ushbu jihatlar xonandaning kasbiylik darajasida kuylash uslubini o'zlashtirilishida juda muhimdir.

Yuqorida zikr etilgan fikrlar ansambl xonandalarining musiqiy namuna va uning talqini bilan bog'liq holatlarda o'zlashtirishi lozim bo'ladigan an'anaviy va merosiy badiiy didi va munosabatini bildiradi. Uni idroklab ijro etganda esa, an'anaviy ijrochilik sohasida o'zlashtirilgan bilim darajasida shaxsiy talqin didi o'zini namoyon etadi. Chunki, har bir davr o'zining ma'naviy va madaniy dunyoqarashi, zamonasining rivoji bilan bog'liq taraqqiyot madaniyatiga ega.

Ayni paytda xalqimizning butun dunyo xalqlari kabi turmush-tarzi, madaniyati kun sayin rivojlanib bormoqda. Barcha sohalarda kun sayin olamshumul ahamiyat kasb etuvchi, kishini quvontiruvchi va ilm-fanga munosib hissa qo'shayotgan yutuqlarga erishilmoqda. Ma'naviy darajasi, madaniyati, didi, san'atga bo'lgan talablar ham borgan sari kuchaymoqda. Qolaversa, xalqimizning estetik tarbiyalash, barkamol avlodni tarbiyalash, ularning ma'naviy yuksalishi, badiiy didi va madaniy malakasini shakllanishi va yuksalishiga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Musiqa ta'limining boshlang'ich bosqichlaridan boshlab an'anaviy, xalq musiqasining ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda va bevosita ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan an'analarni, qadriyatlarni o'zlashtirilishiga yo'naltirilmoqda. O'z o'rnida, yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni, komil inson sifatida shakllanishi uchun barcha o'qituvchilar, ijodkor-san'atkorlar samarali va fidokorona mehnat qilmoqdalar.

Musiqiy merosni to'laligicha, mukammal holatda avlodlar e'tiboriga havola etishda xonandalarning ijro amaliyotida o'tmishga asoslangan, an'analarni o'zida jamlagan va hozirgi zamon kishisining didiga mos holatda o'zbek musiqiy merosini talqin etishlari juda muhim ahamiyat kasb etadi. Qayd etish joizki, «Badiiy nutqda ma'no jihatidan bir-biridan uzoq so'zlar o'zaro yaqinlashadi, so'zning ko'p ma'nolilik xususiyati shakllanib boradi. Nutqning uyushiqligi oshib, ritmlilik (jihatlarini) kasb etadi»⁹ – deb, ushbu manba'da nutqning badiiy jihatdan matnga, talqinga qo'shayotgan hissasi ko'rsatib berilmoqda. Agar so'z va matn nutqni shunchalar boyitadigan bo'lsa, aytish va kuylash uni bir necha barobar va har tomonlama boyishi uchun xizmat qiladigan san'at desak, adashmaymiz. Ya'ni, bu jihatlar musiqiy talqinda turli ohanglar va metro-ritmik rang-barangliklarning uyg'unlashishi hisobiga yanada oshadi. Kuylovchi va tinglovchilar orasidagi holatlarni undanda jozibali, purma'no va mukammalroq tarkib topishiga xizmat qiladi.

An'anaviy xonandalik sohasida badiiy did nafaqat shaxsiy, balki hamnafaslar didi bilan uyg'unlashishini talab etadi. Shunda jamoaviy ijro kuylayotgan asarining eng go'zal jihatlarini namoyish etilishini ta'minlaydi.

⁹ Энциклопедик луғат. 1-ж. –Т., 1988. 76-б.

I. Mustaqil mashg'ulotlar.

1. Badiiy asarlarni (rasmlar, badiiy buyumlar, zeb berilgan ziynatlar, zargarlik buyumlari, miniatyuralar, opera, musiqali drama, drama va h.k.) bevosita muloqot holatida ko'rish, o'rganish va tahlil qilish.

2. Badiiy kitob va g'azallarni mutolaa qilib ulardagi nafosatni idroklashga harakat qilish.

3. Xalq yo'llarida aytilgan aytishuvlardan, lapar aytishuvlaridan namunalar tinglash va ijro uslublarini tahlil qilish.

4. Katta ashula namunalarini, Andijon, Marg'ilon, Farg'ona, Qo'qon va Yozyovon ijro maktablarining namoyandalari tomonidan ijro etilgan asarlarini tinglash va ijroviy uslublari jihatidan o'rganish.

5. Tinglash darayonida xonandalarning ijro mahorati, badiiy didini anglashga harakat qilish, nafas olish va sarf etish uslubini bilib, o'rganish va uzun nafas bilan ijro etishga e'tibor qaratish.

6. Shashmaqom namunalarini ansambl ijrosidagi yozuvlarini munatazam tinglab borish.

II. O'qish uchun adabiyotlar.

1. Ражабий Ю. Музыка меросимизга бир назар. –Т., 1978.

2. Ражабов И. Мақомлар. –Т., 2006.

3. Матёкубов О. Мақомот. –Т., 2004.

4. Begmatov S., Qodirov N. Ansambl sinfi. –Т., «Yangi nashr», 2008.

5. Бегматов С. Ҳофизлик санъати. –Т., 2009.

USUL ASOSLARI VA RITMIK TARBIYA

Usul o'zbek musiqasining asoslaridan biridir va uni azaldan doira cholg'usida ijro etilishi rasm bo'lgan. «Musiqachi bastakorlar o'tmishda doira usullarini ifodalashda ma'lum doiraga (aylanib keluvchi muayyan naqrlar tarkibi) asoslangan ritmik uslubini ixtiro etganlar... Doira usullarida ishlatiladigan bu ruknlar aruzdagi vaznlarni ham ifodalay olganlar»¹⁰ deb usullarni kelib chiqishi xususida yozadi musiqashunos olim I.Rajabov. Usul xususida o'tmish zamonlarda musiqani ilmiy asoslab bergan allomalar o'z risolalarida bayon etganlar. Al-Farobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy, Abdurauf Fitrat kabi olimlar shular jumlasidandir.

An'anaviy musiqa merosimizni usulsiz tasavvur qilishimiz mumkin emas. Usul bu – musiqani yurak urishi kabi boshqarib turadigan bir mo'jizaviy omil. U eng avvalo asos, u boshqaruvchi, u etaklovchi va tarbiyalovchi sifatida xonandalik amaliyotida ahamiyatlidir. Uning musiqada asosligi – unga tayanilishi bo'lsa, boshqaruvchiligi – har qanday ohang muayyan usulga tayanib

¹⁰ Ражабов И. Мақомлар масаласига доир. –Т., «Фан», 1963. 140-б.

yaratiladi va ijro etiladi. Yetakchilik xususiyatida esa har qanday ohang rivoji, badiha va jozibasi usul sarhadlari zaminida talqin etiladi. Har qanday xonanda-ijrochi usul mezonini to'g'ri idroklashi, saqlashi va unga itoat etishi tarbiyaviy jarayonni o'zida jamlaydi.

Xonandalar ansambli ijrochiligida usul butun jamoaning bir me'yordagi xonishini ta'minlab beruvchi muhim tamoyillardan biri sifatida gavdalanadi.

Usul – muayyan ritmik tuzilma. Musiqiy meros amaliyotida ularning turli shakllari vujudga kelgan. Ular oddiy usullar, murakkab usullar, mumtoz usullar kabi tushunchalar bilan yuritilib kelingan. Ularni negizida oddiy bum-bak tursa, Shashmaqomning asosiy qismlaridan biri Saraxbor usuli aynan shunday ko'rinishga ega. Lekin, Saraxbor usuli o'z nomi bilan «bosh xabar» ma'nosini anglatishida «usul» iborasining naqadar purma'no va murakkab ekanligini namoyon etadi. Demak, usulning ritmik jihatini oddiy desa bo'ladi, lekin ularning ijroviy xislatlari baribir murakkab falsafiy ma'no kasb etadi. Buni A.Fitrat o'z risolalarida quyidagicha ta'riflaydi. «Ba'zi eski musiqiy kitoblarda ko'rganimiz «zarb-i asl» (tub chertish) atamasi shul chirmanda usulidan boshqa narsa bo'lmasa kerakdir. Demak, bizning bugunki «bum-bak» usulimiz haqiqiy usul bo'lg'on «tan, tanana»ning qisqartirib, doira bilan ko'rsatilganligidir».¹¹

Ana shu ko'rinishda oddiy, lekin xususiyat jihatidan murakkab bo'lgan «bum-bak»larning rang-barang ketma-ketliklari asosida yuzaga kelgan ritmik tuzilmalar asosida o'zbek musiqasining usullar tizimi shakllangan. Qayd etish kerakki har bir ritmik tuzilmaga ega bo'lgan usulning o'z xarakteri ham mavjud. Shu bois maqom ijrochiligida usullar ta'limotiga asoslangan ritmik tarbiya ham katta ahamiyatga egadir. Ritmik tarbiya musiqa ta'limining ilk bosqichidan boshlab, ahamiyatli ravishda o'zlashtirib boriladi. Ritmik tarbiyaning tinglash, bilish, o'zlashtirish va amaliy chertib berish uslublariga tayaniladi. Bu tarbiya uslubi xonandalarning usulda pishiq bo'lishlari, usuldan chiqmasliklari va ijroni puxta amalga oshirishlari uchun xizmat qiladi. Ritmik tarbiya, ayniqsa, xonandalikning jo'rovozlik hamda ansambl bo'lib jamoaviy ijrolarida juda katta ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, o'tmish xonandalari qo'llarida doira cholg'usi bilan xonishlariga o'zlari jo'r bo'lganlar.

Qayd etish lozimki, xonandalik yoki cholg'u ijrochiligida xonanda va cholg'uchi usul nuqtai nazaridan usul bilan bog'liq uch jarayonni uyg'unlashtirib talqin etadi. Birinchisi doira usuli, ya'ni kuy usul asosi, ikkinchisi ohang usuli (musiqa nazariyasida metro-ritmik asos) va nihoyat uchinchisi xonishdagi hamnafas yoki ansambl tarkibidagi ishtirokchi talqinidagi usullar mutanosibligini ta'minlab beradi. Shundagina xonish benuqson, tarannum esa mukammal ifodasini topadi.

¹¹ Фитрат А. Ўзбек классик музыкаси ва унинг тарихи. –Т., «Фан», 1993. 13-б.

I. Mustaqil mashg'ulotlar.

1. Musiqiy metro-ritm asoslari, usullar va ularning nazariyasini o'zlashtirib borish.
2. Usulning asosiy xususiyatlarini anglagan holda ularning turlari bilan tanishib chiqish, ularni chertib kuylash. Oddiy va murakkab usullarni idroklab yod olish.
3. A.Fitratning «O'zbek musiqasi nazariyasi va uning tarixi» kitobida keltirilgan usullarni o'qish va Shashmaqom usullari bilan solishtirib ijro etish.
4. Xonish paytida doirada o'ziga o'zi usul berib kuylash uslubini o'zlashtirish.

II. O'qish uchun adabiyotlar.

1. Фитрат А. Ўзбек мусиқаси назарияси ва унинг тарихи. –Т., «Фан», 1993.
2. Ражабов И. Мақомлар масаласига доир. –Т., «Фан», 1963.
3. Акбаров Ил. Доира усуллари. –Т., 1966.
4. Ражабий Ю. Шашмақом. Том. I-VI. –Т., 1966-1975.
5. Самадов Р. Анъанавий дойра ижрочилиги. –Т., 2004.

USLUBIY TAVSIYALAR

O'quvchilarning an'anaviy xonandalik ansamblini egallash sabog'i jarayonida lozim bo'ladigan amaliy mashg'ulotlarga, pedagogik nuqtai nazardan uslubiy ko'rsatmalar eng muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy xonandalik azaldan og'zaki tarzda ustoz-shogird qabilida o'zlashtirilib, avlodlarga o'tib kelayotganligini zaminida ham ana shu ustozning o'ziga xos saboq uslubi va uslubiy ko'rsatmalari muhim rol o'ynagan. Zamonaviy jarayonni zamonaviy texnologiyalarning ancha rivojlanishi bilan izohlaydigan bo'lsak, musiqaning texnik vositalar bilan uyg'unligi va ular orqali amaliy ishlar bajarilayotganligining cheki yo'q. Hozirgi paytda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham ancha keng yo'lga qo'yilganligini e'tirof etish lozimdir. Lekin, an'anaviy xonandalik va uni jo'rovoz hamda ansambl sifatida ijro etish mezonlari o'zining an'anaviy shart-sharoit, qonun-qoida, talab va ehtiyojlariga ega. Unda asosiy mezonlardan biri bevosita talqin etish desak, adashmagan bo'lamiz.

Qo'llanmada an'anaviy xonandalar ansambllari uchun zarur bo'lgan hamda dasturda belgilangan bir qator malakaviy ko'rsatmalarni o'quvchilar uchun tushunarli darajada nazariy tushuntirishga harakat qilindi. Shularga qo'shimcha sifatida qo'llanmaga kiritilgan musiqiy namunalarga o'quvchilar bilishlari zarur bo'lgan ma'lumotlarni keltirishga jazm etildi. Shu bilan birga ularni o'zlashtirish paytida e'tibor qaratiladigan jihatlari ham qayd etilishi ko'zda tutildi.

An'anaviy xonandalik ansambli dasturida o'quvchilarning olti semestr davomida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan asarlarning ro'yxati tartib bilan keltirilgan. Qo'llanmaga biz, keltirilgan repertuardan tanlab olgan holda bir qator namunalarni keltirdik. Ular asosan musiqiy ta'limning o'rta bo'g'in sabog'i uchun qulay va imkon darajalari uchun mosdir. Shu bilan birga xonandalarning ansambl bo'lib ijro etishlari uchun har tomonlama qulay va xarakterli asarlar tanlab olindi. Aytish kerakki, ansambl ijrochiligida o'quvchilarning imkoniyatlari bilan birga guruh holat nuqtai nazaridan ham ularning imkoniyatlari chamlalaniladi. Shuning uchun, asosan ana shu imkoniyatlarni amaliyot tajribasida ko'rsatgan natijalariga ko'ra musiqiy asarlar keltirildi.

1. «Mo'g'ulchai Dugoh» – Dugoh maqomining ikkinchi guruh shu'balari tarkibidan o'rin olgan. Ushbu asar Dugoh maqomining «Mo'g'ulcha» nomi bilan mashhur ashula yo'li bo'lib, barcha ikkinchi guruh shu'balari kabi turkum asardir. Mo'g'ulcha nomi Shashmaqomda doyra usullariga nisbatan qo'llaniladi. «Mo'g'ulchai Dugoh» turkumi Shashmaqomning Savt-Mo'g'ulcha turkumi kabi tarkiblashgan, faqat uning tarkibida boshqa shu'balarda uchramaydigan qalandari va samandari ashulalari mavjud. Bu asarlar talqin usulida ijro etiladi. Shuni hisobiga bu turkum 7 qismdan iboratdir. «Mo'g'ulchai Dugoh» kuy va ohang jihatidan yoqimli va vazmin xarakterga ega. U Saraxbori Dugoh yo'llari

